

**JANUBIY SURXONDARYO DIALEKTIZMLARIGA DOIR AYRIM
MULOHAZALAR**

(Termiz tumani Ayritom mahallasi misolida)

Ro‘ziyeva Durdona Nuriddinovna

TerDU o‘zbek filologiyasi fakulteti talabasi

ro‘ziyevadurdona2004@gmail.com

+99891 513 28 20

Annotatsiya

Ushbu tezisda dialektizm haqida va uning adabiy tildan farqlanishiga doir qarashlar aks ettirilgan. Ushbu fikrlar morfologik jihatdan tadqiq etilib, barcha keltirilgan misollar Termiz tumani shevalari misolida tahlilga olingan. Shuning ushbu dialektlarning o‘zbek tilining izohli lug‘atida va boshqa shevalar tarkibida kuzatilishiga doir nazariyalar keltirilgan

Kalit so‘zlar. Janubiy Surxondaryo, dialektizmlar, o‘zbek shevalari, sheva birliklarining morfotahlili, leksik baza

Bugungi kunda dialektlar ustida olib borilayotgan tadqiqotlarning tarixi o‘tgan asrning 20-yillariga borib taqaladi va bugungacha davom etib kelmoqda. Biz bilamizki, milliy til tarkibida adabiy til bilan birgalikda shevalar ham yashab kelmoqda. Adabiy tilning o‘ziga xos taraqqiyot bosqichi borligini, ammo shevalarimiz, lahjalarimizning taraqqiyoti va rivojlanish masalasi hamon hal etilmayotgan dolzarb muammolardan biri ekanligini alohida ta’kidlash lozimdir. Sheva tadqiqiga bag‘ishlangan ishlar yil sayin zamonaviy tilshunoslik taraqqiyoti soyasida qolib ketayotgani sir emas. Mustaqillik yillarda soha rivojiga xizmat qiluvchi sezilarli tadqiqotlar bajarilgan¹. Janubiy Surxondaryo shevalari doirasida birinchi bo‘lib tadqiqotlarni S. Maxmatqulov² tomonidan olib borilgan bo‘lsa, keyinchalik S.Rahimov³,

¹ Xamidov M. A. Surxondaryo o‘zbek shevalariga doir ayrim paremalar tahlili/ Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences/ VOLUME 2 | ISSUE 7 ISSN 2181-1784

² Маматкулов А. Шеробод район “жўқ”чилар шеваси. Фил. фан. кан. дисс. – Самарқанд. 1961.

³ Раҳимов С. Сурхондарё вилояти ўзбек шевалари лексикаси: автореф. Фил. фан. кан. – Тошкент, 1974.

X.Fayziyeva⁴ va M.Xolova⁵ va Eshboyeva Sh⁶, M.Xamidov⁷, S.Sharipova⁸ tomonidan olib tadqiqotlar olib borilgan.

Surxondaryo shevalari xususida gap borar ekan, hududda ko‘proq qipchoq va qisman qarluq lahjariga mansub aholining istiqomat qilishi kuzatiladi. Termiz tumani “Ayrитом” mahallasida istiqomat qiluvchi aholi shevasida qo’llanuvchi birliklarning o‘zbek xalq shevalari lug‘atida keltirilgan leksemalarning aynan qaysi sheva elementlari ko‘pligiga e’tibor qaratganimizda quyidagi holatning guvohi bo’lindi.

Šapalāq/ šapalāx (shapaloq)/ turkum ot/ izoh: qo’lning besh panjasи va va kaftdan iborat qismi [O’TIL 2020. IV. – B. 544.] / **šappāt** (shappot.Xorazm) shaklida ishlatiladi: Qulāryńdi tajiga bi:r šapalāq qojaman, ‘olasan.

Üvüz (uvuz)/ turkum: ot/ izoh: sigir qo’y kabi chorva mollaridan sog’ib olinadigan suyuqlik; **Og`iz sut** (Yuqori Qashqadaryo) [O’TIL2020. III. – B.185.] shaklida ishlatiladi.

Kävşanmāq / turkum fe'l: Og’izdagи taomni tishlar orasida maydalamoq [kavshamoq, O’TIL 2020. II. – B. 291.]/ **Go’shamoq, goshemek** (xorazm,xazorasp) [go’sha: fors. Ovloq. O’TIL 2020. I. – B. 533.] shaklida ishlatiladi.

Chinachoq / turkum ot / izoh: qo`l yoki oyoqning beshinchi eng kichik barmog`i **Chimchaloq** (Andijon) shaklida ishlatiladi [O’TIL 2020. II. – B. 89.]. :

Moshin gira / turkum:ot / izoh:paxta yoki jun va shu kabilar tolasidan ingichka qilib yigirilgan yoki yigirilmagan tikuv materiyali / **G`altak ip** (Urganch) shaklida ishlatiladi.

To`y kelmoq / turkum: fe'l / izoh: Uylanish, turmushga chiqish bilan ziyofat berb o’tkaziladigan xalq marosimlari [to‘y bermoq, O’TIL 2020. IV. – B. 229.]/ **adag`lamaq** (Urganch) (Xiva) shakida ishlatiladi [adoqlamoq, kam qo’llandi: oxiri tomonga qarab yo‘nalmoq, O’TIL 2020. I. – B. 41.].

Kayvoni / turkum: sifat / izoh: [fors.qoracha] Yoshi ug`aygan, keksa, qari xotin [O’TIL 2020. II. – B. 293.] / **Ajij** (Janubiy Tojikiston) shaklida ishlatiladi:

Shudgor / turkum:ot / izoh:haydalgan,chopilgan yer [O’TIL, IV, – B. 606] **Aya yer** (Xorazm) shakilda ishlatiladi.

Shoxa / turkum: ot / izoh: beshta egri sanchig`i bo’lgan paxta, xashak kabilarni olish uchun ishlatiladigan uzun temir asbob, Xorazmda bu asbob **ayri I** deb ataladi [**ayri II** soft. biror

⁴ Fayziyeva X. O‘zbek tili Boysun-Sho‘rchi guruh shevalarining lug‘at xususiyatlar. Filol.fan bo‘yicha falsafa doktori. (PhD) diss. avtoref... Termiz. 2023.

⁵ Холова М. А. O‘zbek shevalarining standart tilga munosabati va til tizimidagi o‘rni (Boysun tumani “j” lovchi shevalar misolida) //международный журнал искусство слова. – 2020. – Т. 3. – №. 5.// Kholova M. Peech genres of texts and passport mete-metrics in the dialect corpus (Baysun district on the example of the sound “J” dialects) //Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems. – 2020. – Т. 12. – №. 6. – С. 1103-1107.// Abdulhakimovna X. M., Ozoda L. Lingvistikada orfografik tamoyillar va tahlillar // qo‘qon universiteti xabarnomasi. – 2022. – Т. 5. – С. 104-106.

⁶Eshboyeva Sh. Bandixon tumani shevasiga oid dialektal so‘zlar to‘g‘risida/ O‘ZBEK AMALIY FILOLOGIYASI ISTIQBOLLARI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. –B. 108.

⁷ Xamidov M. A. Surxondaryo o‘zbek shevalariga doir ayrim paremalar tahlili/ Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences/ VOLUME 2 | ISSUE 7 ISSN 2181-1784

⁸ Sharipova S. Adabiy tilning shakllanishida uslublar taraqqiyoti. Vol. 2, Is. 6. 2021. ISSN: 2181-1601. file:///C:/Users/hp/Downloads/adabiy-tilning-shakllanishida-uslublar-taraqqiyoti.pdf

joydan ikkiga tarmoqlangan semasini bildirib omonim sifatida izohlash mumkin, O'TIL, I, – B. 57.].

Tarash / turkum: ot / izoh: Ariq qazish jarayonidagi chekkaga chiqarib tashlanadigan tuproq [O'TIL.III. – B. 676.] / **Alan** (Xorazm) shaklida ishlatiladi:

Tanqa / turkum: ot / izoh: Ro'zg`or buyumi, yuz-qo'l yuvish uchun ishlatiladigan qorni keng, bog'zi tor idish [O'TIL.III. – B. 71.] / **Abdasa** (Toshkent) Avtista (Farg`ona) shaklida ishlatiladi:

Oxli / turkum: ot / izoh: qo'yrlarning ket tomonida, asosan dumaloq shaklda ko'rinvchi yog` qism [O'TIL.– B.] **Oxlug`** (O'sh) shaklida ishlatiladi.

Ko'ksulton / turkum : ot / izoh: Yashil tusli meva [O'TIL.II.– B. 453.] **Olxirot** (O'sh) shaklida ishlatiladi:

Aynakar / turkum: ot / izoh : oyna, deraza, eshik ko`zlariga o`rnatish uchun ishlatiladigan yassi shisha [O'TIL.III. – B. 101.] **Eynek** (Andijon) (O'sh) shaklida ishlatiladi:

Oraba / turkum: ot / izoh: asosan ikki yoki to'rt g`ildirakli ot, eshak qo'shiladigan transport vositasi [O'TIL.92. – B. 92.] **Overe** (Andijon) shaklida ishlatiladi:

Saxna/ turkum: sifat / izoh: Aqldan ozgan, esi past, savdoyi [O'TIL.I. B. 31.] **Evliye** (Sayram) shaklida ishlatiladi:

Chirish, yag`ir / turkum: sifat / izoh: Badan, kiyimlarga chang-to'zon o'tirish tufayli va boshqa yo'llar bilan hosil bo'ladigan ifloslik [O'TIL– B.] **Ejve, Ejuve** (Xorazm) shaklida ishlatiladi, Boysun shevasida [Qismoq] ya`ni I burundan oqqan suyuqlikni artish;II ko`p kir bo`lmoq.

Erkalajak / turkum: fe'l / izoh: Mehr bilan silab-siypalamoq// **Giljaymoq** (To'rtko'l) shaklida ishlatiladi:

Qaxar etdi / turkum: fe'l / izoh: qovog`ini solib tikilmoq, yomon ko'z bilan qaramoq// **Dabrinmoq** (Xonqa) (Qo'shko'pir) shaklida ishlatiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, Termiz tumani Ayrитом mahallasi hududida istiqomat qiluvchi aholi shevasi tarkibida o'g'iz lahjasи elementlari ko'pchilikni tashkil qilishi o'zbeklashgan turkmanlar bilan yonma-yon yashashining ta'sirida ro'y berganligini aytib o'tish joiz va shuning bilan birgalikda qisman qarluq lahjasи elementlari ham mavjudligini avlodning o'rta umumta'lim, kasb-hunar vaoliy ta'limda ijtimoiy hayoti bilan bog'lab ko'rsatish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulhakimovna X. M., Ozoda L. Lingvistikada orfografik tamoyillar va tahlillar // qo 'qon universiteti xabarnomasi. – 2022. – T. 5. – C. 104-106.
2. Abdulhakimovna K. M. THEMATIC AND PASSPORT META-MARKUPS OF DIALECTAL TEXTS IN UZBEK NATIONAL CORPUS //Asian Journal of Research. – 2020. – T. 1. – №. 3.

3. Kholova M. Peech genres of texts and passport mete-metrics in the dialect corpus (Baysun district on the example of the sound “J” dialects) //Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems. – 2020. – T. 12. – №. 6. – C. 1103-1107.//
4. Маматқулов А. Шеробод район “жўқ”чилар шеваси. Фил. фан. кан. дисс. – Самарқанд. 1961.
5. Раҳимов С. Сурхондарё вилояти ўзбек шевалари лексикаси: автореф. Фил. фан. кан. – Тошкент, 1974.
6. Fayziyeva X. O’zbek tili Boysun-Sho‘rchi guruh shevalarining lug‘at xususiyatlari. Filol.fan bo'yicha falsafa doktori. (PhD) diss. avtoref... Termiz. 2023.
7. Xamidov M. A. Surxondaryo o‘zbek shevalariga doir ayrim paremalar tahlili/ Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences/ VOLUME 2 | ISSUE 7 ISSN 2181-1784
8. Холова М. А. O’zbek shevalarining standart tilga munosabati va til tizimidagi o’mi (Boysun tumani “j” lovchi shevalar misolida) //международный журнал искусство слова. – 2020. – Т. 3. – №. 5.//
9. Eshboyeva Sh. Bandixon tumani shevasiga oid dialektal so‘zlar to‘g‘risida/ O‘zbek amaliy filologiyasi istiqbollari Respublika ilmiy-amaliy konferensiysi. –B. 108.
10. Sharipova S. Adabiy tilning shakllanishida uslublar taraqqiyoti. Vol. 2, Is. 6. 2021. ISSN: 2181-1601. file:///C:/Users/hp/Downloads/adabiy-tilning-shakllanishida-uslublar-taraqqiyoti.pdf